



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

Xoja Ahmad Mujallid haqida: “Xurosonning **sho’x tab’laridin** erdi. Ammo bag’oyat **xabissheva** (yomon, yaramas, iflos, badbo’y) kishi erdi” degan bo’lsa, Mavlono darvesh Mashhadiy to’g’risida “**safih va badzabon kishidur. Ba’zi azizlarni, derlarki, yomon hajvlar qilibdur**”, – deb yozadi (Navoiy, 1998:52).

Kullas, Alisher Navoiy so’z ustalarining ijobiy va salbiy sifatlarini ajratib ko’rsatishda ularning hazil-mutoyibaga munosabatiga ham alohida e’tibor bergani ko’rinadi. “Malolis un-nafois”da qo’llangan hazil-mutoyiba san’atiga aloqador terminlardan yana biri **tirziq**dir. Tirziq so’ziga “Navoiy asarlari lug’ati”da “bir-biriga munosabatsiz ravishda birikkan so’zlar” deb izoh berilgan. Mazkur istiloh asarning to’rtinchi majlisida Mir Sarbarahnaga bag’ishlangan qismida keltirilgan: “Xush tab’ va xush mashrab va xush suhbat va shirin kalom kishidur. ...**G’oyat sho’x tab’lig’idin** tirziq aytmoq qoidasin Mir paydo qildi. Bovujudi bu goh-goh yaxshi tirziqlar ham navish qilurlar” (Navoiy, 1998:109).

Alisher Navoiyning e’tirof etishicha, Mir Sarbarahna “**tirziq**” deb atalmish o’ziga xos poetik shaklga asos solgan. Unga ta’rif berilgan “G’oyat sho’x tab’lig’i” sifatining o’ziyoq Mir Sarbarahnaning so’z ustasi ekanligi va shu tufayli kichik hajmli hazil-mutoyibalarga o’xshash shaklda ijod qilganini ko’rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og’zaki ijodi, uning tarkibiy bir qismi sifatida shakllangan xalq maydon kulgi san’ati bilan bog’liq askiya, latifa singari janrlar ulug’ mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodi g’oyaviy-badiiy takomiliga xizmat qilgan muhim omillardan hisoblanadi. Buni xalq maydon kulgi san’ati belgilarining buyuk shoir ijodidagi ko’rinishlari asoslay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to’plami. XX jildlik. III jild. G’aroyib us-sig’ar. – T.: Fan, 1988.
2. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to’plami. XX jildlik. VII jild. Hayrat ul- abror. – T.: Fan, 1991
3. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to’plami. XX jildlik. XIV jild. Mahbub ul-qulub. – T.: Fan, 1998.
4. Xondamir. Makorim ul-axloq. – T.: Akademnashr, 2017.
5. O’zbek tilining izohli lug’ati. V jildli. I jild. – T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI – AN’ANA TAKOMILI, TARAQQIYSI HAMDA SINTEZI SIFATIDA

Soatova Nodira Isomitdinovna

JDPU professori, f.f.doktori

nodira.soatova@list.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/BVHD7691

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonidagi epik an’analarini o’rganish vositasida Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romanidagi novatorlikni umumlashtirish tadqiqiga bag’ishlangan.

Kalit so’zlar: An’ana, adabiy an’ana, epik an’ana, adabiy ta’sir, romantizm, realistik uslub, fantastik tasvir, ijodiy uslub.

THE EPISTLE OF "FARKHOD AND SHIRIN" IS A PERFECTION, DEVELOPMENT AND SYNTHESIS OF TRADITION

Abstract. *This article is dedicated to examining the generalization of innovation in Abdulla Qadiri's novel Otkan Kunlar through the lens of Alisher Navoi's Farhod and Shirin saga. It explores how the epic traditions established by Navoi are reinterpreted and incorporated into Qadiri's narrative. The study analyzes the literary techniques and thematic continuities that link these two works, highlighting how Qadiri's novel both draws from and contributes to the evolution of the epic tradition in Central Asian literature.*

Keywords: *Tradition, literary tradition, epic tradition, literary influence, romanticism, realistic method, fantastical image, art method.*

Adabiyot va san'atning nodir namunalari jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida mumtoz yozuvchilarning asarlari tufayli yuzaga kelib, shu jamiyat hayotining rang-barang qirralarini o'zida aks ettiradi. Lekin jamiyat tanazzulga uchrashi va yangi tarixiy davr boshlanishi bilan chinakam san'at asari o'z qimmatini yo'qotmaydi, aksincha, u yashashda davom etib, keyingi avlodlar uchun ham ma'naviy boylik sifatida estetik ta'sir va tarbiya vositasi sifatida xizmat qilaveradi.

Adabiyot va san'at esa hayotiy voqelikni bayon etish jarayonida tasvir usullari, shakllari va vositalarini boyitib va mukammallashtirib boradi. Shunga ko'ra, adabiy an'ana deyilganda, dunyoni badiiy idrok etish sohasida asrlardan-asrlarga, ajdodlardan avlodlarga ehtiyoj tufayli o'tib kelgan ilg'or adabiy tajribalar nazarda tutiladi. Amalda an'ana - turli-tuman javohirotni ega g'oyat katta bir xazina. Bu xazinadan har kim o'ziga keragini: birov syujet qurishdagi mahoratini, birov yorqin xarakterlar yaratishni, boshqa birov qahramonlar ruhiyatini tasvirlash va hokazolarni oladi, o'rganadi. Shu yo'sinda an'anadan foydalanish, ma'lum ma'noda, badiiy tadqiqotga aylanadi. Obyektiv borliqni, undagi bir-biri bilan aloqada bo'lgan voqea-hodisalarni jasorat bilan realistik tasvirlagan, zamonaviylikni yaxshi his etgan har bir san'atkor, shubhasiz, o'zining salaflari an'anasini munosib davom ettiruvchi bo'ladi. Ko'pincha yozuvchilar badiiy mahoratni ustoz so'z san'atkorlariga ergashish, ularning boy tajribasini o'rganish orqali egallaydilar.

Ustozlarga nisbatan chuqur hurmat va ayni zamonda odob bilan bayon qilingan tanqidiy qarashlar Alisher Navoiy "Xamsa"sida yuqoridagi fikrlardan ham ravshanroq aks etgan. "Xamsa" tarkibiga kirgan birorta doston yo'qki, unda Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy yoki Xusrav Dehlaviy, Ashraf yoki Abdurahmon Jomiyning muborak nomlarini tilga olmagan, ularning seyrkor qalamlariga tahsinlar o'qib, ayni paytda, ba'zi nuqsonlarini ko'rsatmagan bo'lsin.

Alisher Navoiy kishilik tafakkuri vositasida Yunoniston va Hindistonda, Xitoy va Arabistonda, Eron va boshqa o'lkalarda yaratilgan fan, adabiyot javohirlariga zo'r ehtirom bilan munosabatda bo'lgan. Ustozlari Firdavsiy, Ganjaviy, Dehlaviy, Jomiy, Lutfiy singari nurli siymolarning asarlarini ipidan-ignasigacha o'rgangan va ulardan ijodiy saboq olgan. Ulug' shoir "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'zidan oldin o'tgan san'atkorlarning asarlarini ko'p o'qiganligi haqida hikoya qilib, "...o'qurga devonindin bu faqir mutolaasiga ko'p mashg'ul bo'lmog'an devon oz erkan", - degan va ulardan ilhomlangani xususida yozgan: "Barchasiga ko'p qatla o'qupmen, balki ko'pini yod tutupmen va qasoyid va g'azaliyotlarining g'arib va latofatin bilibmen, balki g'aribroq va latiflariga tatabbu' dohi qilibmen" [Navoiy, 1948:194-195].

O'zbek yozma adabiyotini kuzatish orqali shu narsa ma'lum bo'ldiki, mumtoz adabiyotimizda romanning paydo bo'lishi, birinchidan, she'riy epik dostonlarning yuzaga kelishi, ikkinchidan, nasrning shakllanishi, nihoyat, uchinchidan, realizmning tug'ilishi va tarixiy rivoji bilan bog'liq. Ba'zi bir milliy adabiyotlarda realizmning paydo

bo'lishini ko'pincha satira janrining vujudga kelishi bilan bog'laydilar. Shu ma'noda XIX asrning ikkinchi yarmi o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotida sezilarli iz qoldirgan Muqimiy, Furqat, Maxmur, Zavqiy, Avaz O'tar kabi san'atkorlar tomonidan yaratilgan ajoyib satirik asarlar o'zbek adabiyotidagi realizmning qaror topishida muhim rol o'ynaganini unutmazlik lozim bo'ladi. Bu keyinchalik yaratiladigan o'zbek romanlari uchun ham zamin hozirlanishi edi. Yozma adabiyotimizda epik dostonlarning mumtoz namunasi Alisher Navoiy "Xamsa"ga kirgan dostonlardir. Realizmning shakllanishi esa o'zbek nasrining ajoyib namunasi "Boburnoma" bilan, shuningdek, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va shubhasiz, Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy, Hamza ijodlari bilan bog'liq. Bularning hammasi bir-biriga uyg'unlashgan holda o'zbek mumtoz adabiyotida roman uchun zamin yaratgan, degan asosni beradi.

Ma'lumki, o'zbek yozma adabiyoti qariyb ming yillik tarixga ega. Alisher Navoiy ijodi ana shu katta tarixiy davr ichida o'zbek adabiyoti bosib o'tgan yo'lning yakuni, adabiy taraqqiyotning cho'qqisi sifatida maydonga keldi. Navoiy tomonidan yaratilgan o'nlab asarlar, xususan, uning epik dostonlari o'zigacha bo'lgan ilg'or intilishlar va adabiy an'analarning takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida diqqatni jalb etadi. Xususan, o'tmishda, o'zbek romani bo'lmagan bir sharoitda uning "Xamsa"ga kirgan epik asarlari roman vazifasini bajargan desak, xato bo'lmas kerak. Chunki Alisher Navoiyning ijodiy uslubi romantik yo'nalishga ega. Agar o'zbek adabiyotida realistik uslubning paydo bo'lishiga qadar uning o'rnini romantizm bajarganligi hisobga olinsa, u vaqtda roman-nazm o'rnini Navoiy yaratgan roman-poeziya ado etib kelganligini tushunish qiyin bo'lmaydi [Mirvaliyev: 50-51].

"Farhod va Shirin" dostonini tahlil qilar ekan, N.Mallayev ham Farhodning "mukammal epik obraz darajasi"ga ko'tarilganligini ta'kidlab, "Buning natijasida asar she'riy romanga o'xshab ketadi" [Mallayev, 1976:443], – deb bejiz yozmagan.

Har bir badiiy asarning og'zaki va yozma adabiyot an'alaridan oziqlanishi tabiiydir. Shu ma'noda, Alisher Navoiy bilan Abdulla Qodiriy o'rtasidagi adabiy aloqalar haqida so'z borganda, ijodiy ta'sir qaysi yo'l bilan sodir bo'lgani, qanday xarakterga egaligi, buyuk shoir ijodidan ilhomlanish va bahramand bo'lish orqali Abdulla Qodiriy badiiy mahoratining taraqqiyot bosqichlari ko'z oldimizda gavdalanadi.

Odatda ikki yozuvchi ijodi qiyoslanganda, tahlil qilinayotgan asarlar syujetining o'xshash jihatlari, adabiy qahramonlarning yaratilish uslubi, mualliflarning fikrlash tarzi kabi qator masalalar tilga olinadi. Abdulla Qodiriy adabiyotimiz tarixida to'plangan tajribalar va boy an'analarga hurmat bilan yondoshgan. Ayni paytda ijodiy izlanishlari bilan uni sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarib, ibrat namunasini ko'rsatdi. Abdulla Qodiriy iste'dodli, tug'ma san'atkor sifatida ustozlaridan olgan bilimi bilangina chegaralanib qolmay, ancha ilgari ketdi.

Muayyan bir asarni adabiy ta'sir nuqtayi nazaridan o'rganar ekanmiz, uni faqat u mansub janr namunalari bilangina muqoyasa qilish biryoqlamalik bo'lar edi. Zero, adabiy ta'sir keng ko'lamlilik va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, bir janrdagi asarga turli janrdagi asarlar ta'sir ko'rsatishi mumkin va bu tabiiy. Shu jihatdan "O'tkan kunlar"da nafaqat nasriy asarlar yoxud epik tasvir ustivorlik qilgan dostonlar, ayni paytda, xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning turli janrdagi asarlari ta'sirini ham kuzatamiz. Shunday ekan, Qodiriy Navoiy dostonlaridan epik tasvir san'atini o'rganibgina qolmay, ulardagi lirik tarovatdan ham bahramand bo'lgani shubhasiz.

Abdulla Qodiriyning Otabek va Kumushni yangi zamonning Farhod va Shirinlariga nisbat berishining o'ziyoq Alisher Navoiy qalamiga mansub mazkur dostonning xalq orasida qanchalik mashhurligi, jumladan, adib uchun ham ardoqli asarlardan biri ekanligi va, tabiiyki, "O'tkan kunlar"ga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatganligini bildiradi. Bugina emas. "Farhod va Shirin" va "O'tkan kunlar" Alisher Navoiy va Abdulla Qodiriy ijodida alohida o'rin tutishi, mualliflarning Farhod va Otabek, Shirin va Kumush obrazlari orqali o'z ideallaridagi yigit va qiz timsollarini yaratganliklarini e'tiborga olsak, mazkur asarlar Navoiy va Qodiriyning estetik qarashlari, olamga va odamga munosabati, tafakkur ko'lami, badiiy mezonlari va boshqa ko'plab ular hayoti, ijodi, shaxsi, dunyoqarashi bilan bog'liq masalalarga oydinlik kiritishi mumkinligi ayon bo'ladi.

Farhod va Otabek, Shirin va Kumush obrazlarida o'zaro mushtarak jihatlar ko'p. Har ikkala muallif ham o'z qahramonlarini alohida bir mehr-muhabbat bilan tasvirlagan. Ular o'zlarida va o'zlari hurmat qilgan kishilarda mavjud bo'lgan, ayni paytda, o'zlari orzu qilgan barcha ijobiy fazilatlarini bu qahramonlar siymosida mujassamlantirganlar. Zero, adabiy qahramon hayotiy shaxsga to'la-to'kis muvofiq kelmaydi, u bir qadar ideallashtirilgan bo'ladi.

Ma'lum bo'ladiki, Farhod va Shirin hamda Otabek va Kumush Navoiy va Qodiriy tomonidan muayyan darajada ideallashtirilgan qahramonlar. Lekin mualliflar o'z asarlarini bir-biridan farqlanuvchi ikki metod: Navoiy – romantik, Qodiriy – realistik metoddan foydalanib yaratganlar. Agar Navoiy "Farhod va Shirin"ni yozishda og'zaki va yozma adabiyotdagi romantik qahramonlik dostonlaridan oziqlangan bo'lsa, Abdulla Qodiriy xalq og'zaki ijodi va mumtoz so'z san'atimiz an'alariga suyanibgina qolmay, zamonaviy Sharq va G'arb romanchiligida erishilgan badiiy yutuqlardan ham bahramand bo'lgan. Shu jihatdan bu ikki asar qahramonlari o'rtasida mushtarak tomonlar bo'lishi bilan birga, tafovutli o'rinlar ham mavjudligi tabiiy. Chunonchi, Farhod birmuncha romantik-ko'tarinki uslubda, mubolag'ador, fantastik tasvir unsurlari bilan omixta holda tasvirlangan bo'lsa, Otabek obrazi realizm talablariga mos ravishda yaratilgan.

Alisher Navoiy talqinidagi Farhod va Shirin faqat sevgi va vafoning ilohiy ma'budalarigina emas. Ular, birinchi navbatda, ma'naviy kamolot va ruhiy go'zallikning tirik va noyob timsollari hamdir.

"Navoiy ma'naviy go'zallikni jismoniy go'zallikdan ayri holda ajramagani singari, ilm bilan hunar ham o'zaro omixta bo'lishi tarafdoridir. Ya'ni ma'naviy yetuk kishi jismoniy jihatdan ham go'zal bo'lsa, bu-komil go'zallik hisoblanadi. Xullas, ilmli odamning hunari ham bo'lsa, o'z navbatida, hunarmand ham ilm-u ma'rifatdan boxabar bo'lsa, haqiqiy barkamollik -shu.

Farhodda ayni jihatlarning bari mujassam: u barcha ilmlarni egallash barobarida hamma hunarlardan ham xabardor, ma'naviy jihatdan yetuk bo'libgina qolmay, jismoniy tomondan ham kuchli va go'zal, mard va shijoatli"[Ochilov, 2000:39]. Ayni xususiyatlarni Otabekda ko'ramiz. Otabek garchi Farhod kabi zamonasining barcha ilmlarini egallamagan bo'lsa-da, lekin o'ziga yetarli darajada bilimli. Savdo ishi bilan nafaqat o'z mamlakati viloyatlari, balki rus shaharlarga ham borgan, xalq turmushi, davlatni boshqarish ishlarini kuzatib, ko'zi ochilgan, dunyo ko'rgan, muayyan tajriba to'plagan, dunyoqarashi xiyla keng, fikr-mulohazasi chuqur; o'zi bosiq, xushmuomala; mard va tanti, jasur va qo'rqmas, andishali, or-nomusli, qisqasi, o'z zamonasining yetuk farzandlaridan hisoblanadi.

“Farhod va Shirin”da romantik sarguzasht tasviri yetakchilik qiladi: Shirinni izlab yo'lga chiqqan Farhod ko'pdan ko'p sarguzashtlarga duch keladi – Yunon yurtiga borib, Suhaylo bilan uchrashadi, ajdaho, Ahriman, temir paykarni yengib, Jamshid jomini qo'lga kiritadi, Suqrot hakim bilan so'zlashib, Iskandari Rumiy tilsimni ochadi. Bu – voqealarning birinchi bosqichi. Ikkinchi bosqichi – ko'zguda Shirinning aksini ko'rgan Farhodning unga yetish yo'lida boshidan kechirgan voqealarni o'z ichiga oladi.

Otabek garchi o'z salafi kabi Marg'ilonga yor izlab emas, balki savdo ishi bilan kelgan bo'lsa-da, “bu o'rtada o'xshashi” bo'lmagan “ko'hlik” bir qizning savdosiga giriftor bo'ladi. Uning baxtli-baxtsiz sarguzashtlari shundan so'ng boshlanadi. Asarda muhabbat masalasining vaqtincha ikkinchi o'ringa tushirilishi yozuvchining xalq dostonlariga ergashmay, ijodiy yo'ldan borganligini ko'rsatadi. Demak, yozuvchi an'anani egallashda taqlidchilik yo'ldan emas, balki ijodiy yo'ldan borgan.

Farhod o'z muhabbati yo'lidagi to'siqlar bo'lmish ajdaho, Ahriman, temir paykar va Xisravlar bilan afsonaviy jangu jadallar olib borgan bo'lsa, Otabekning o'z dushmanlari Homid, Mutal polvon va Sodiqlarni o'zaro teng bo'lmagan kurashda yengib chiqishi ham bir doston, katta qahramonlik. Farhod o'zini makr-u hiyla bilan bandi qilgan raqibi Xisravdan sira cho'chimay, uning savollariga bosiqlik bilan va asosli javob qaytaradi, ilmoqli gaplar, kinoyalar bilan uni hatto mot qiladi.

“Xisravning xitoblari qancha qattiq bo'lsa, Farhod unga shuncha osonlik bilan javob berar edi. Xisrav unda shu qadar jasoratni ko'rdi. Uning so'zlari ham xuddi dur sochganday edi. Bundan Xisrav bexud bo'lib, ichiga o't tushganday, uning ichidagi o'txonadan esa buning alangasi chiqayotganday bo'ldi. “Mendek podshoga boshidan-oyog'igacha zanjirdagi shunday bir tuban va razil odam, hayotining ko'chatidan shoxlar sinib turgan bir paytda o'jarlik bilan javob beryapti. Bunday fidoiyni o'lim jazosiga tortish kerak, toki har qanday tog' va vodiy gadoyi ikkinchi marta sultonlar oldida xavf va dahshatni pisand etmay, so'zga botirlik ko'rsatmasin!” – deb o'yladi u.

...Uni dor qurilgan, o'tin va o't tayyorlangan yerga olib keldilar. “Shunday bir begunoh o'lib ketaveradimi?!” – deb butun xalq o'rtasida g'ulg'ula ko'tarildi.

...Xisrav boshliq uning barcha xos kishilari, xoslarning o'zigina emas, hamma Farhodning bilimdonligidan, mardlik bilan beparvoligidan hayratda edilar. Xaloyiq uning hech kimi yo'qligiga, uning bunday jazoga loyiq emasligiga yig'lashar edi” [Navoiy,1989:519-520].

Xisrav, bir tomondan, xalq orasida g'avg'o-to'polon chiqishidan qo'rqib, ikkinchi tomondan, Farhodning yuzida valiylik nurini ko'rib, uni o'ldirishdan hayiqib, o'z hukmini bekor qiladi – uni Salosil bandi etadi.

Homidning tuhmati bilan Otabek va Mirzakarim qutidorni Xudoyorxonga qarshi isyon chiqarishda ayblab qo'lga oladilar hamda so'roq uchun Marg'ilon qushbegisi huzuriga keltiradilar. “Otabekda tushinmaslikdan boshqa o'zgarish sezilmasa ham qutidor juda qo'rqqan, rangi o'chkan edi” (71). Otabek bilan Musulmonqulning o'rtasidagi dialogdan, Otabekning dovyurakligi, jasorati va qahramonligi ko'rinib turadi, muallif tomonidan u ta'rif-tavsif etilmaydi, balki asar qahramonlarining hayrat-hayajoni orqali ifodalanadi. Chunonchi, do'stining uch dushmanga qarshi bir o'zi kurash olib borganini eshitganda usta Alim tong qolib: “Subhonolloh! Qanday yuragingiz bor ekan, Otabek!” (253)-deb xitob qiladi. Uning bu ishini “aqlar ishonmaslik qahramonlik” (253) sifatida baholaydi. Usta Alimdan “arslon yuraklik Otabek”ning (260) qahramonligini bilgan qutidor, “bir tomondan, dahshatka tushsa, ikkinchi jihatdan, Otabekning dav yuragiga hayron qolar edi” (261). Er-u xotin

allamahalgacha Otabekning “favqulodda yuraki”ni maqtab, uning haqiga duo qilib o‘tiradilar.

Mihinbonu bilan Shirinni, ularning arkoni davlatini gado kiyimidagi Farhodning farishtalarnikidek xulqu odobi, chuqur bilimi va keng dunyoqarashi, xushmuomalasi, nazokati hayratga soladi. Ular Farhodning oddiy odam emasligini anglay boshlaydilar.

Mihinbonuning o‘z sharafiga uyushtirilgan ziyofatida esa Farhod may ta’sirida dadillanib, malikaning ilmu hunarda barkamol qizlari bilan savol-javob qilib, nechoqlik bilim va salohiyati borligini namoyon qiladi va barchani yana bir hayratga soladi.

Otabek ham Ziyo shohichinikida bo‘lgan mehmondorchilikda o‘zining bilimdonligi, keng dunyoqarashi, chuqur va ma’noli so‘zlari, go‘zal xulqi, o‘zini tutishi, kamtar-kamsuqumliligi, yaxshi bilim va tarbiya olganligi bilan davradagilarning olqishiga sazovar bo‘ladi.

Farhod va Otabekni bir-biriga bog‘lab turuvchi jihatlardan yana biri-ularning xalqparvarligi. Farhod-shahzoda, Otabek ham hukumatda baland martabada turuvchi bir kishining, o‘ziga to‘q xonadonning farzandi bo‘lsa-da, har ikkalasi o‘zining fuqaroparvarligi, el xizmatiga kamarbastaligi, yurt qayg‘usiga eshligi bilan alohida ajralib turadi.

Yoshligidan xalqni o‘ylashi, uning og‘irini yengillatishga urinishi, “ko‘ngli el ozoridan ozor” topishi, “el anduhidan g‘amnok” bo‘lishi, fildan ham kuchli ekanligiga qaramay, chumoliga ham ozor bermasligi, taqdir zarbalarini o‘ziga olishi singari fazilatlar Farhodning elim deb, yurtim deb yashaydigan fidoyi kishilar toifasiga mansub ekanligidan dalolatdir.

Qipchoq qirg‘inidan qayg‘urishlari, Toshkent hokimining maslahatchisi sifatida otasini ham bu fojiaga aybdor bilib, unga ta’na qilishi ham Otabekning xalq dardu g‘ami bilan yashagan bir inson ekanligini ko‘rsatdi.

Farhod ham, Otabek ham mard, jasur va tanti kishilar. Ular hatto o‘zlaridan bir necha barobar kuchli dushmanni yenga oladigan darajadagi shijoatga ega. Ularning bunday bahodirliklariga do‘stlari ham, dushmanlari ham tan beradilar. Lekin har ikkalasi ham makr-hiyla oldida ojiz. Bu ularning inson zotiga o‘ta ishonuvchanliklaridan kelib chiqadi. Natijada ikkalasi ham ustalik bilan to‘qilgan xiyonat to‘riga tushadi. Makkorlar “Shirin o‘ldi”, degan yolg‘on xabar tarqatib, Farhodning o‘limiga sabab bo‘lgan bo‘lsalar, soxta taloq xati uyushtirib, Otabek va Kumushni bir necha muddatga bir-biridan judo etadilar.

Bu har ikki kampir, Yosuman va ismi jismidan yer bilan osmoncha farqlanuvchi xiyonatkor ayol Jannatning tashqi qiyofasi tasvirining o‘ziyoq kishini dahshatga soladi. Ular faqat an’anaviy shum kampirlargina emas, balki o‘z xukmi bilan yuzta Buqroni Hakimni mot etib, Farhodni o‘ldirguvchi kuchga ega; ikkinchisining ham makr va hiylasi hisobsiz bo‘lishi mumkin. Real hayotdagi makkor unsurlar Navoiy dostonida qanday badiiy vazifani bajargan bo‘lsalar, “O‘tkan kunlar”da ham shunday vazifani o‘taydilar va bu hol Qodiriy asarida Navoiy ta’siri o‘laroq zuhur beradi.

Shirin va Kumush o‘rtasida ham o‘zaro o‘xshash jihatlar ko‘p. Shirin ham, Kumush ham o‘z zamonasining har jihatdan yetuk qizlari: oqila, fozila, husnu jamolda tanho, xulqu adabda yakto, sevgisiga sodiq, ahdiga vafodor, ishqda qat’iyatli, jasur, or-nomusli, qisqasi, ideal ayolga xos bo‘lgan barcha ezgu fazilatlar ortig‘i bilan ularda mujassam. Shirin va Kumush – hamma zamonlarda har qanday yigitning orzu-a’molidagi qizlar.

Abdulla Qodiriyning adabiy muvaffaqiyati va yozuvchilik mahorati shundaki, u Farhod va Shiringa o'xshash xalq orzu-umidlarining tajassumi bo'lgan qahramonlarni yaratishni havas qilibgina qolmay, ular muqobiliga qo'yadigan darajada yuksak iste'dod bilan ishlangan Otabek va Kumush obrazlarini ham yarata oldi. Xalq orasida mashhur bo'lib ketganligi, shoirlar qalamiga, xonandalar qo'shig'iga tushganligi adibning Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Bahrom va Gulandom, Vomiq va Uzro, Oshiq G'arib va Shohsanam, Alpomish va Barchin kabi suyukli va o'lmas qahramonlar silsilasini Otabek va Kumush obrazlari bilan boyitdi.

O'zbek og'zaki va yozma adabiyotida o'z an'anasiga ega bo'lgan bu xil xususiyatlar, nasrga xos epiklikni tashkil etuvchi usul va vositalar Abdulla Qodiriy tomonidan realizm "dekcha"sida qayta ishlandi. Yozuvchi, o'zi aytmoqchi, asarni yozishda doimo o'quvchi ommani ko'z o'ngida tutgan; bu asar bilan xalqimiz rag'batini mumkin qadar yangilikka tortishga intilgan, ayni paytda shu kungacha o'rta asr dostonchiligi va hikoyanavisligi bilan ozuqlanib kelgan xalqning zavqini, saviyasini nazarda tutib, mumtoz adabiyot usullaridan ham ongli ravishda foydalangan. Qisqasi, bu roman til, ifoda tarzi jihatidan eski nasr bilan yangi, realistik nasr qolaversa, butun boshli mumtoz adabiyotimiz bilan yangi o'zbek adabiyoti orasidagi oltin ko'prik vazifasini o'tadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy buyuk Alisher Navoiy an'alarini nasrga shunchaki ko'chirmadi, balki ularga ijodiy yondoshgan holda, epik tasvirga asoslangan realistik roman janrining yangi va yuksak namunasini yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy A. Tanlangan asarlar. Muhokamat ul-lug'atayn. –T.: O'zdatnashr, 1948. – B.194-195.
2. Navoiy A.Farhod va Shirin. –T.: Adabiyot va san'at, 1989. – B. 516; 519-520.
3. Mirvaliyev S. O'zbek romani. – B. 50-51.
4. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T. O'qituvchi, 1976. – B. 443
5. Ochil E. Farhod – komil inson // Tafakkur, 2000 № 3. – B. 39.

“ALISHER NAVOIY” ROMANIDA OBRAZ POETIKASI

Rasulova Umida

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, f.f.d, prof.

rasulovaumida12@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/OHCL1280

Annotatsiya. *Ijodkorlar zamonaviy nasrga yangi tasvir, ifoda olib kirdilar, hayotni turli rakurslardan turib tasvirlay boshladilar. Ular mavzularni to'ldirib, boyitib bordilar. Ijtimoiy hayotdagi dolzarb muammolarni ijodiy yondashuv asosida kitobxonga yetkazishga harakat qiladilar. Nasriy asarlar poetikasida adabiy an'anaga sadoqat tarzida o'zlik, g'urur, jo'mardlik motivini rivojlantirish kuzatilmoqda.*

Kalit so'zlar: *poetika, obraz, portret, talqin, matn, davr, xronotop, shaxs.*

THE POETICS OF IMAGE IN THE NOVEL OF "ALISHER NAVOI"

Abstract. *This article explores how contemporary authors have introduced new imagery and expressions into modern prose, offering diverse perspectives on life. Through creative approaches, they have enriched literary themes, aiming to convey the prevailing social issues to*

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alishir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622